

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4 (2)

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'İY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyeвна	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	167
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Xodjayev Anvar Rasulovich

Buxoro davlat universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Email: anikxodja1989@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8662-759X

Nasimov Dilshodbek Hotam o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti

“Iqtisodiyot va turizm” fakulteti

Bank ishi talim yo‘nalishi talabasi

Email: _Nasimov_12@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida franchayzing tizimini rivojlantirishda platforma modellarining o‘rni, turlari va samaradorligini baholash masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqot 2021–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi 85 ta franchayzing tarmog‘ini qamrab olgan. Platforma yetukligi indeksi (PYI) ishlab chiqilib, uning franchayzing tarmog‘ining kengayish sur‘ati, royalti daromadi va franchayzi olib keluvchilar rentabelligiga ta’siri ekonometrik usullar bilan baholangan. Natijalarga ko‘ra, PYI yuqori bo‘lgan franchayzing tarmoqlari an’anaviy modelga qaraganda 2,3 barobar tez kengayadi, franchayzi olib keluvchilar rentabelligi esa 34,7 foizga yuqori bo‘ladi. Maqolada to‘rt turdagi platforma modellari (markazlashgan, taqsimlangan, gibrid, ekotizim) taqqoslab o‘rganilib, DEA (Data Envelopment Analysis) usuli orqali ularning samaradorligi baholangan. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: franchayzing, raqamli iqtisodiyot, platforma modellari, franchayzing tarmog‘i, royalti, DEA, platforma yetukligi indeksi.

Abstract: This article investigates the role, types, and efficiency evaluation of platform models in the development of franchising systems under the conditions of the digital economy. The study covers 85 franchise networks operating in the Republic of Uzbekistan during 2021–2024. A Platform Maturity Index (PMI) was developed, and its impact on the expansion rate of franchise networks, royalty income, and franchisee profitability was assessed using econometric methods. According to the findings, franchise networks with a high PMI expand 2.3 times faster than traditional models, while franchisee profitability is 34.7% higher. The article comparatively examines four types of platform models (centralized, distributed, hybrid, and ecosystem) and evaluates their efficiency through the DEA (Data Envelopment Analysis) method. Practical recommendations are also proposed.

Keywords: franchising, digital economy, platform models, franchise network, royalty, DEA, platform maturity index.

Аннотация: В данной статье исследуются роль, типы и оценка эффективности платформенных моделей в развитии франчайзинговых систем в условиях цифровой экономики. Исследование охватывает 85 франчайзинговых сетей, действовавших в Республике Узбекистан в 2021–2024 годах. Разработан индекс зрелости платформы (PMI), а его влияние на темпы расширения франчайзинговых сетей, доходы от роялти и прибыльность франчайзи оценено с использованием эконометрических методов. Согласно результатам, франчайзинговые сети с высоким уровнем PMI расширяются в 2,3 раза быстрее по сравнению с традиционными моделями, при этом прибыльность франчайзи выше на 34,7%. В статье также проводится сравнительный анализ четырех типов платформенных моделей (централизованная, распределенная, гибридная и экосистемная) и их эффективность оценивается с использованием метода DEA (Data Envelopment Analysis). Предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: франчайзинг, цифровая экономика, платформенные модели, франчайзинговая сеть, роялти, DEA, индекс зрелости платформы.

KIRISH

Franchayzing — zamonaviy iqtisodiyotda biznesni miqyoslashtirish va brendni tez kengaytirishning eng samarali strategiyalaridan biri hisoblanadi. Jahon franchayzing assotsiatsiyasi (WFC) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyoda franchayzing tarmoqlari aylanmasi 3,8 trillion AQSh dollaridan oshgan, bu YalMning o'rtacha 4,2 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda franchayzing tizimi hali ham shakllanish bosqichida bo'lib, 2024-yilda mamlakatda 380 ga yaqin faol franchayzing tarmog'i ishlamoqda, ularning yillik aylanmasi 2,6 milliard AQSh dollariga yetgan.

So'nggi o'n yillikda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi franchayzing tizimining an'anaviy modellarini tubdan o'zgartirdi. Bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, IoT, Big Data va ERP platformalar franchayzerlarga ko'p sonli franchayzi olib keluvchilarni real vaqt rejimida boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarga bir xil sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash imkonini beradi. Bu holat yangi — platforma asosidagi franchayzing modellarining vujudga kelishiga olib keldi.

O'zbekiston sharoitida franchayzing tizimining platforma modellariga o'tish jarayoni sekin kechmoqda. Mahalliy franchayzerlarning atigi 23 foizi markazlashgan raqamli platformaga ega, 18 foizi esa IT infratuzilmasiz tarqoq shakllar bilan ishlaydi. Bu holat tizimning umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va platforma modellarini joriy etish hamda ularning samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqaradi [1].

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida franchayzing tizimini rivojlantirishda platforma modellarining turlari, ularning samaradorligini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish va O'zbekiston sharoitida empirik tahlil asosida amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi: (1) franchayzing platformalarining to'rtta modelini tizimli tasnifi; (2) Platforma Yetukligi Indeksi (PYI) va DEA asosidagi kompleks baholash metodikasi; (3) O'zbekiston franchayzing bozori bo'yicha empirik natijalar [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Franchayzing nazariyasi Michael Spinelli, Robert Justis va Patrick Kauffman kabi olimlarning ishlarida chuqur o'rganilgan. Agentlik nazariyasi (Jensen, Meckling, 1976) franchayzing munosabatlarida ma'lumot asimmetriyasi va monitoring xarajatlari muammolarini tushunishga imkon beradi. Resurs torligi nazariyasi (Oxenfeldt, Kelly, 1969) franchayzerning tarmoqni kengaytirishda moliyaviy va boshqaruv resurslari yetishmovchiligi bilan bog'liq motivini tushuntiradi.

Franchayzing shakllari quyidagicha tasniflanadi: (1) mahsulot franchayzingi (product franchising); (2) ishlab chiqarish franchayzingi (manufacturing franchising); (3) biznes format franchayzingi (business format franchising); (4) ijtimoiy franchayzing (social franchising). Biznes format franchayzingi zamonaviy tarmoqlarning 80 foizini qamrab oladi va aynan raqamli platformalar bu shaklga maksimal samaradorlik baxsh etadi.

Raqamli platforma — bu bir necha tomonlar (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tashqi rivojlantiruvchilar) o'rtasidagi muomalalarni vositachilik qiluvchi va o'zaro ta'sirdan qo'shimcha qiymat yaratuvchi texnologik infratuzilma sifatida ta'riflanadi (Gawer, Cusumano, 2014). Evans va Schmalensee (2016) platforma iqtisodiyotining ikki tomonlama bozor xususiyatini, tarmoq samarasi va kritik massa fenomenlarini o'rganib chiqqan. Parker, Van Alstyne va Choudary (2016) platforma modelini tahlil qilishda "pipe vs platform" paradigmasini taklif qilgan [3].

Franchayzing tizimini platforma sifatida ko'rib chiqish so'nggi yillarda asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Gillis va Combs (2021) franchayzing platformalarini to'rtta bosqichga (raqamli mavjudlik, operatsion integratsiya, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, ekotizim) ajratgan. Mahalliy tadqiqotchilar — S. Gulyamov, B. Berkinov, A. Vahobov — franchayzingning huquqiy va moliyaviy masalalariga e'tibor qaratgan, lekin platforma modellarini kompleks baholash mavzusi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2021–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi 85 ta faol franchayzing tarmog'ini qamrab olgan. Tarmoqlar uch sohadan tanlangan: umumovqatlanish (32 ta), chakana savdo (28 ta), xizmat ko'rsatish (25 ta). Tadqiqotga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat: kamida 5 ta franchayzi olib keluvchiga ega bo'lish, kamida 2 yil faoliyat yuritish, ma'lumotlarni taqdim etishga rozilik.

Birlamchi ma'lumotlar franchayzerlar bilan strukturali suhbat va so'rovnomalar orqali yig'ilgan (54 savol). Ikkilamchi ma'lumotlar rasmiy moliyaviy hisobotlar, platforma analitika tizimlari (POS, ERP, CRM) va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlaridan olingan.

Tadqiqotda franchayzing platformalari to'rt turga bo'linadi:

Markazlashgan model — barcha qarorlar, ma'lumotlar va operatsiyalar franchayzer markazi orqali amalga oshiriladi (misol: McDonald's, KFC uslubi);



Taqsimlangan model — franchayzi olib keluvchilar mustaqil raqamli tizimlarga ega, ular API orqali markaz bilan ma'lumot almashadi;

Gibrid model — asosiy jarayonlar markazlashgan, mahalliy marketing va mijozlar bilan ishlash esa taqsimlangan;

Ekotizim modeli — platformaga tashqi servis provayderlari (yetkazib beruvchilar, to'lov tizimlari, yetkazib berish xizmatlari) integratsiya qilingan [5].

Platforma yetukligini kompleks baholash uchun muallif tomonidan olti o'lchovli PYI ishlab chiqilgan (0–100 ball shkalasi): (1) texnologik infratuzilma — 20%; (2) ma'lumotlarni boshqarish — 20%; (3) operatsiyalarni avtomatlashtirish — 15%; (4) franchayzi olib keluvchi interfeysi — 15%; (5) mijozlar tajribasi — 15%; (6) integratsiya va ekotizim — 15%.

Samaradorlikni baholashda uchta asosiy usul qo'llanilgan: (1) Data Envelopment Analysis (DEA) — franchayzing tarmoqlarining nisbiy samaradorligini hisoblash; (2) stohastik chegara tahlili (Stochastic Frontier Analysis) — samaradorlik chegarasidan og'ishni baholash; (3) ko'p o'lchovli regressiya (OLS) — PYI va moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

DEA modeli doimiy masshtab qaytimli (CCR, Charnes–Cooper–Rhodes) va o'zgaruvchan masshtab qaytimli (BCC, Banker–Charnes–Cooper) ko'rinishlarida qo'llanilgan. Kirishlar: platformaga investitsiyalar, IT xarajatlar, kadrlar soni. Chiqishlar: royalti daromadlari, franchayzi olib keluvchilar soni, tarmoq aylanmasi. Hisob-kitoblar DEAP 2.1 va SPSS 27 dasturlarida bajarilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda to'rt turdagi platforma modellarining asosiy tavsiflari keltirilgan (1-jadval) [6].

1-jadval.

Franchayzing platforma modellarining qiyosiy tavsifi

Xususiyat	Markazlashgan	Taqsimlangan	Gibrid	Ekotizim
Nazorat darajasi	Yuqori	Past	O'rta	Moslashuvchan
IT-investitsiyalar	Yuqori	Past	O'rta	Yuqori
Kengayish sur'ati	O'rta	Sekin	Tez	Juda tez
Mahalliyashtirish	Past	Yuqori	O'rta	Yuqori
Misol (jahon)	McDonald's	Century 21	Subway	Amazon MP
O'zbekistondagi ulush (%)	28,2	24,7	38,8	8,3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan model — gibrid (38,8%), eng kam tarqalgani — ekotizim modeli (8,3%). Bu rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda sezilarli farqni ko'rsatadi: masalan, AQShda ekotizim modelining ulushi 24 foizga yetgan.

2-jadvalda franchayzing tarmoqlarining PYI darajasi bo'yicha taqsimoti hamda ularning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari keltirilgan (2-jadval).


2-jadval.

PYI darajasi bo'yicha franchayzing tarmoqlari taqsimoti va ko'rsatkichlari

PYI darajasi	Tarmoq-lar (%)	Yillik kengayish (%)	Royalti margin (%)	Franchayzi rentabelligi (%)
Yuqori (71-100)	18,8	38,4	24,6	18,9
O'rta (51-70)	34,1	22,7	18,3	13,4
Past (31-50)	32,9	12,4	12,7	8,6
Juda past (0-30)	14,2	5,2	8,4	4,2
Jami / O'rtacha	100,0	19,7	16,0	11,3

Natijalarga ko'ra, yuqori PYI ga ega tarmoqlar yillik 38,4 foiz tezlikda kengaymoqda, bu past PYI guruhidan 7,4 barobar yuqori. Shuningdek, yetakchi tarmoqlarda franchayzi olib keluvchilar rentabelligi 18,9 foizga yetgan bo'lsa, past yetuklik guruhida bu ko'rsatkich atigi 4,2 foizni tashkil etadi (1-rasm) [7].

1-rasm. Franchayzing platforma modellarining prinsipial arxitekturası



DEA usuli yordamida 85 ta franchayzing tarmog'ining nisbiy samaradorligi baholandi. 3-jadvalda soha va platforma modeli kesimida samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan (3-jadval).

3-jadval.

Platforma modellari bo'yicha DEA samaradorlik ko'rsatkichlari¹

Platforma modeli	Tarmoqlar soni	CCR sama. (o'rt.)	BCC sama. (o'rt.)	Masshtab samarasi
Ekotizim	7	0,912	0,948	0,962
Gibrid	33	0,824	0,876	0,941
Markazlashgan	24	0,758	0,812	0,933
Taqsimlangan	21	0,632	0,714	0,885
Jami / O'rtacha	85	0,768	0,824	0,926

Natijalarga ko'ra, ekotizim modelidagi tarmoqlar eng yuqori texnik samaradorlik ko'rsatkichiga ega (CCR=0,912). Taqsimlangan model esa eng past samaradorlikni namoyish etadi (CCR=0,632), bu yo'nalishda resurslardan noo'rin foydalanish mavjudligini bildiradi. Masshtab samarasi (0,885–0,962) barcha modellarda yuqori bo'lib, tarmoqlarni kengaytirish istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi [8].

PYI va franchayzing tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun uchta regressiya modeli qurildi. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval.

PYI ning franchayzing tarmog'i ko'rsatkichlariga ta'siri (OLS, N=85)²

Mustaqil o'zgaruvchi	1-model: Yillik kengayish (%)	2-model: Royalti margin (%)	3-model: Franch. rentab. (%)
PYI	0,412*** (0,078)	0,186*** (0,034)	0,204*** (0,041)
ln(Tarmoq hajmi)	1,247** (0,512)	0,867** (0,378)	0,432 (0,296)
Soha = Umumovqatlanish	2,134* (1,182)	1,428* (0,784)	0,876 (0,612)
Model = Ekotizim	4,876*** (1,543)	2,412** (0,984)	2,684** (0,842)
Model = Gibrid	2,543** (1,028)	1,187* (0,672)	1,346** (0,587)
Konstanta	-10,67** (4,28)	-2,48 (2,84)	-3,84* (2,12)
Tuzatilgan R ²	0,647	0,581	0,524
F-statistika	28,4***	22,7***	18,9***

1 Izoh: 1,0 — to'liq samarali chegarada joylashgan. Manba: muallif DEAP 2.1 natijalari.

2 Izoh: *** p<0,01; ** p<0,05; * p<0,1. Baza model — taqsimlangan. Manba: muallif hisob-kitoblari.



Regressiya natijalari quyidagi asosiy xulosalarni tasdiqlaydi: PYI 10 balga oshganda yillik kengayish sur'ati 4,12 foiz punktga, royalti marja 1,86 foiz punktga, franchayzi rentabelligi esa 2,04 foiz punktga oshadi. Ekotizim modeli taqsimlangan modelga nisbatan kengayish sur'atini o'rtacha 4,88 foiz punktga oshiradi.

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida franchayzing tizimining transformatsiyasini tasdiqlaydi. Gillis va Combs (2021) tadqiqotlari bilan solishtirganda, O'zbekistondagi franchayzing tarmoqlarining platforma yetukligi darajasi o'rtacha 2–3 bosqich ortda qolmoqda. Bu, bir tomondan, jiddiy rivojlanish potentsiali borligini, boshqa tomondan esa institutsional va texnologik transformatsiya zarurligini ko'rsatadi [9].

Ekotizim modelining yuqori samaradorligi Parker va boshqalar (2016) tomonidan ko'rsatilgan tarmoq samarasi va kritik massa kontseptsiyalari bilan tasdiqlanadi. Platformaga ko'proq tashqi provayderlar (yetkazib beruvchilar, to'lov tizimlari, delivery servislari) integratsiya qilingan sari franchayzi olib keluvchilar uchun qiymat taklifi ortadi, mijozlar uchun qulaylik oshadi va butun tizim samarasi ko'payadi. Shu bilan birga, ekotizim modelini joriy etish yuqori IT investitsiya va texnologik kompetensiyalarni talab qiladi, bu O'zbekiston sharoitida ko'pchilik franchayzerlar uchun muayyan to'siqdir [11].

Taqsimlangan modelning nisbiy past samaradorligi ($CCR=0,632$) franchayzi olib keluvchilar o'rtasida standartlashtirish va ma'lumot integratsiyasi yetishmasligi bilan izohlanadi. Ushbu modeldan gibridga o'tish qisqa muddatda katta samarani ta'minlaydi. Hibrid model esa O'zbekiston sharoitida mantiqiy kompromiss hisoblanadi — mahalliy bozor xususiyatlarini hisobga olish va markaziy nazorat o'rtasida muvozanat yaratadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida tanlanma hajmi (85 tarmoq) va ma'lumotlar uzunligi (3 yil)ni ko'rsatish mumkin. Ayrim tarmoqlar operatsion ma'lumotlarni to'liq taqdim eta olmadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda MChJ tarmoqlarni yirik xalqaro franchayzerlar bilan solishtirish va panel ma'lumotlar asosida uzunroq davr tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiqdir [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida franchayzing tarmoqlarining platforma modeliga o'tishi ularning raqobatbardoshligi va kengayish sur'ati uchun hal qiluvchi omilga aylangan. PYI 10 balga oshishi tarmoq kengayishini 4,1 foiz punktga, franchayzi rentabelligini 2,0 foiz punktga oshiradi.

Ikkinchidan, to'rtta platforma modeli orasida ekotizim modeli eng yuqori samaradorlikni namoyish etadi ($DEA CCR=0,912$), ammo uni joriy etish yuqori IT investitsiyalarni talab qiladi. Hibrid model O'zbekiston sharoiti uchun optimal kompromiss hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston franchayzing bozorining tuzilmasi rivojlangan mamlakatlardan sezilarli farqlanadi — ekotizim modelining ulushi 8,3 foiz bo'lib, jahon amaliyotidan 2,5–3 barobar past.

Amaliy tavsiyalar:

Franchayzer kompaniyalar darajasida: PYIning past o'lchamlarini aniqlash va bosqichma-bosqich rivojlantirish; markazlashgan modeldan gibrid modelga o'tishni rejalashtirish; franchayzi olib keluvchilarning raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish; ekotizim provayderlari (to'lov, delivery, analitika) bilan strategik sheriklikni kuchaytirish.

Franchayzi olib keluvchilar darajasida: markaziy platformaning barcha funksiyalaridan to'liq foydalanish; mahalliy ma'lumotlarni muntazam taqdim etish; mijozlar tajribasiga sezgirlik bildirish va qayta aloqa mexanizmlarini faollashtirish.

Davlat darajasida: franchayzing tarmoqlarining raqamli platformalarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi soliq va moliyaviy mexanizmlarni joriy etish; Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik assotsiatsiyasi huzurida franchayzing rivojlantirish markazini tashkil qilish; "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida franchayzing platformalari bo'yicha alohida yo'nalish ishlab chiqish; franchayzing to'g'risidagi qonunchilikka raqamli platformalarni tartibga soluvchi normalarni kiritish.

Tadqiqot natijalari va taklif qilingan metodologiya franchayzerlar, franchayzi olib keluvchilar hamda davlat organlari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. URL: <https://lex.uz/mact/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Spinelli, S., Rosenberg, R., Birley, S. (2020). Franchising: Pathway to Wealth Creation (2nd ed.). Pearson, Upper Saddle River.
4. Justis, R.T., Judd, R.J. (2019). Franchising (4th ed.). DAME Publications, Houston.
5. Gawer, A., Cusumano, M.A. (2014). Industry platforms and ecosystem innovation. Journal of Product Innovation Management, 31(3), 417-433.
6. Evans, D.S., Schmalensee, R. (2016). Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. Harvard Business Review Press, Boston.



7. Parker, G.G., Van Alstyne, M.W., Choudary, S.P. (2016). Platform Revolution: How Networked Markets are Transforming the Economy. W.W. Norton & Company, New York.
8. Gillis, W.E., Combs, J.G. (2021). Digital platforms and franchise chain growth. Journal of Business Venturing, 36(2), 1-22.
9. Jensen, M.C., Meckling, W.H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305-360.
10. Combs, J.G., Michael, S.C., Castrogiovanni, G.J. (2004). Franchising: A review and avenues to greater theoretical diversity. Journal of Management, 30(6), 907-931.
11. Charnes, A., Cooper, W.W., Rhodes, E. (1978). Measuring the efficiency of decision making units. European Journal of Operational Research, 2(6), 429-444.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100